Qarshi universiteti

Kuch — bilim va tafakkurda!

Ijtimoiy-ma'rifiy gazeta

Gazeta 1966-yildan chiqa boshlagan.
2026-yil
30-may № 5 (1135)

"TALABAEXPO-2026" - YOSHLAR UCHUN YANGI IMKONIYATLAR MAYDONI

Universitetimizda tashkil etilgan "TalabaExpo-2026" kasb ko'rgazmasi viloyatdagi minglab yoshlar, bitiruvchilar, ish beruvchilar hamda davlat va jamoat tashkilotlari vakillarini bir maydonga jamlagan yirik tadbir sifatida o'tkazildi. Yoshlarning kasbiy rivojlanishi, bandligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va innovatsion salohiyatini namoyon etishga qaratilgan mazkur ko'rgazma "Yoshlar kuni" munosabati bilan alohida ruh va mazmun kasb etdi.

Tadbir doirasida "Rahbar va yoshlar uchrashuvi" tashkil etilib, unda Bosh prokurorning birinchi o'rinbosari Bahriddin Valiyev, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o'rinbosari Sardor Rajabov, Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari Farhod Boqiyev, "O'zmilliybank" AJning "Kelajakka qadam" markazi direktori Elmurod Hoshimov va Qashqadaryo viloyati hokimi Murotjon Azimov ishtirok etdilar.

Ochiq muloqot davomida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligini ta'minlash, zamonaviy kasb-hunarlarga yo'naltirish, ilmiy va innovatsion faoliyatga jalb etish, shuningdek, tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar haqida batafsil so'z yuritildi.

Ayniqsa, "Kelajakka qadam" dasturi doirasida yoshlarga taqdim etilayotgan imkoniyatlar tadbir ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi. Mazkur dastur orqali talabalarga kasb-hunar o'rganish, o'z biznes g'oyalarini shakllantirish va ularni moliyalashtirish mexanizmlari haqida keng tushuntirish berildi. O'z biznesini yo'lga qo'yishni istagan yoshlar uchun imtiyozli kreditlar va subsidiyalar olish bo'yicha mutaxassislar tomonidan bepul konsultatsiyalar tashkil etildi.

Ko'rgazmaning yana bir muhim jihati - talabalar tomonidan yaratilgan texnik ishlanmalar, innovatsion loyihalar, IT dasturlar, startap g'oyalar va amaliy ijod namunalari keng jamoatchilikka namoyish etildi. Yoshlarning ilmiy va amaliy izlanishlari, zamonaviy texnologiyalarga bo'lgan qiziqishi, kreativ fikrlash salohiyati tadbir mehmonlarida katta taassurot qoldirdi.

Qashqadaryo viloyati hokimi Murotjon Azimov ham ko'rgazma bilan yaqindan tanishib, yoshlar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion mahsulotlar va g'oyalarga yuqori baho berdi. U o'z nutqida yoshlarning tashabbuskorligi va bilimga intilishi hududning kelgusi taraqqiyotida muhim omil bo'lishini ta'kidladi.

Ochiq muloqot chog'ida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar, takliflar va ilmiy-ijodiy mulohazalar bilan rahbarlarga murojaat qildilar. Uchrashuv davomida ko'tarilgan har bir masala yuzasidan amaliy yechimlar ishlab

chiqilishi, yoshlar tashabbuslari davlat va tegishli tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi alohida qayd etildi.

Tadbir yakunida o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagida bo'lgan bir guruh bitiruvchi yoshlarning loyihalari ma'qullanib, ularga imtiyozli kredit mablag'lari ajratish uchun vaucherlar topshirildi. Bu esa yoshlarning mustaqil biznes faoliyatiga ilk qadam qo'yishlari uchun muhim rag'bat bo'ldi.

Shuningdek, universitet hududida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda faol ishtirok etayotgan oliygohning "Qalqon" jamoatchilik guruhi a'zosi bo'lgan qizlarga sovg'alari topshirilib, ularning fidokorona mehnati e'tirof etildi.

"TalabaExpo-2026" kasb ko'rgazmasi nafaqat ish topish yoki kasb tanlash imkoniyatini yaratdi, balki yoshlarning ilmiy salohiyatini namoyon etish, yangi tashabbuslarni ilgari surish va kelajakdagi faoliyatiga ishonch bilan qadam qo'yishlari uchun muhim maydonga aylandi. Bunday tadbirlar yosh avlodni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash va mamlakat taraqqiyotiga daxldorlik hissini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

XALQARO FORUMDA O'ZBEKISTON TA'LIMI MUNOSIB NAMOYISH ETILDI

Xalqaro hamkorlik

Bugungi globallashuv davrida oliy ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, mamlakatimiz ta'lim tizimini dunyo miqyosida targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xalqaro maydondagi faolligi xorijlik yoshlarning mamlakatimizda ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini tobora oshirmoqda.

Joriy yilning 22-24-may kunlari Ozarbayjon Respublikasining Boku shahrida "Ingla International Education and Training Center" tomonidan "Study in Uzbekistan" loyihasi doirasida tashkil etilgan "O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlarining III ko'rgazmasi" xalqaro forumi bo'lib o'tdi.

Mazkur nufuzli xalqaro tadbir O'zbekiston oliy ta'lim tizimining imkoniyatlari, zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va xalqaro hamkorlik salohiyatini keng targ'ib etish, shuningdek, ozarbayjonlik yoshlar orasida mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalariga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirishga xizmat qildi. Forumda mamlakatimizning qator yetakchi oliy ta'lim muassasalari qatorida Qarshi davlat universiteti vakillari ham faol ishtirok etdi. Tadbir davomida universitet mas'ul xodimlari tomonidan ta'lim yo'nalishlari, xalqaro hamkorlik aloqalari, zamonaviy o'quv jarayonlari hamda talabalar uchun yaratilgan keng imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etildi. Xususan, universitetning tibbiyot, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari hamda

biologiya yo'nalishlari forum ishtirokchilari orasida katta qiziqish uyg'otdi. Ayniqsa, ozarbayjonlik yoshlar va ularning ota-onalari mazkur yo'nalishlar bo'yicha ta'lim olish shartlari, qabul jarayonlari va talabalar uchun yaratilgan zamonaviy infratuzilma haqida katta qiziqish bilan ma'lumot oldilar.

Mazkur xalqaro forum Qarshi davlat universitetining xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlash, xorijlik talabalarni jalb etish va ta'lim sohasidagi hamkorlik ko'lamini kengaytirishda muhim qadam bo'ldi. Shu bilan birga, bunday tashabbuslar O'zbekiston oliy ta'lim tizimining jahon ta'lim makonidagi o'rni tobora mustahkamlanib borayotganining yana bir yorqin ifodasidir.

JAMOAMIZ "TO'MARIS IZDOSHLARI"NING RESPUBLIKA BOSQICHI G'OLIBI

Xotin-qizlar azaldan jamiyatning ma'naviy tayanchi, sadoqat va matonat timsoli sifatida yuksak qadrlanib kelinadi. Ularning zakovati, qat'iyati va fidoyiligi bugungi kunda nafaqat ilm-fan, ta'limda, balki sport maydonlarida ham yorqin namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, qizlarning jismoniy barkamollik, vatanparvarlik va jamoaviy birdamlik ruhida tarbiyalanayotgani mamlakatimizda xotin-qizlarga qaratilayotgan yuksak e'tiborning amaliy ifodasidir. Ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qiluvchi "To'maris izdoshlari" sport musobaqasining Respublika bosqichi Toshkent davlat tibbiyot universiteti sport majmuasida yuqori saviya va ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba-qizlar o'rtasida tashkil etilgan ushbu nufuzli musobaqa yoshlarning jismoniy salohiyati, bilim va epchilligini sinovdan o'tkazuvchi muhim maydonga aylandi.

Musobaqa davomida ishtirokchilar jamoani tanishtirish, yengil atletika, kamondan o'q otish, velosport, estafetali yugurish hamda tez tibbiy yordam ko'rsatish kabi shartlar bo'yicha o'z mahoratlarini namoyish etdilar. Har bir yo'nalishda talaba-qizlarning nafaqat jismoniy tayyorgarligi, balki tezkor fikrlashi, qat'iyati va jamoaviy hamjihatligi yaqqol ko'zga tashlandi.

Quvonarlisi, mazkur musobaqada Qarshi davlat universiteti jamoasi yuksak natijalarni qayd etib, faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi hamda "To'maris izdoshlari" sport musobaqasining Respublika bosqichi mutlaq g'olibi degan sharafli unvonga sazovor bo'ldi.

Universitetimiz jamoasi barcha shartlarda yuqori tayyorgarlik, mustahkam iroda va jamoaviy birdamlik namunasini ko'rsatib, hakamlar hamda tomoshabinlar e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Tanlovning g'olib va sovrindorlariga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan diplom hamda qimmatbaho esdalik sovg'alari topshirildi. Bu e'tirof yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, ularni sog'lom turmush tarziga keng jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qarshi davlat universiteti jamoasining ushbu yutug'i oliygohda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning salohiyatini yuzaga chiqarish va jismoniy barkamolligini ta'minlash yo'lida olib borilayotgan tizimli ishlarning yorqin natijasidir. Eng muhimi, "To'maris izdoshlari" kabi musobaqalar orqali bugungi talaba-qizlarda ajdodlarimizga xos jasorat, sadoqat va vatanparvarlik tuyg'ulari yanada mustahkamlanib, kelajak avlod uchun munosib ibrat maktabi yaratilmoqda.

TALABALARIMIZ INNOVATSION TANLOVDA YUKSAK NATIJAGA ERISHDI

Bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fan, innovatsiya va zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ayniqsa, yoshlarning ilmiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularning yangi g'oya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, innovatsion fikrlashga yo'naltirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday imkoniyatlar yoshlarning nafaqat bilim va salohiyatini namoyon etishiga, balki mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishiga xizmat qilmoqda.

Yaqinda ana shunday nufuzli loyihalardan biri bo'lgan "Mirzo Ulug'bek vorislari" tanlovining Respublika bosqichi yakunlandi. Ilm-fan, innovatsiya va texnologiyalar yo'nalishida iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan ushbu tanlov joriy yilda ham mamlakat bo'ylab minglab yoshlarni birlashtirdi. Bir necha saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgan eng iqtidorli ishtirokchilar 19-22-may kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan final bosqichida o'zlarining ilg'or g'oyalari va innovatsion loyihalari bilan qatnashdilar.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda "Ulug'bek" jamg'armasi hamkorligida tashkil etilgan tanlovning yakuniy natijalariga ko'ra g'olib deb topilgan yoshlar diplom, esdalik sovg'alari hamda bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Quvonarlisi, mazkur nufuzli tanlovda Qarshi davlat universiteti yoshlari ham munosib ishtirok etib, yuksak natijalarga erishdilar. Xususan, universitet Magistratura bo'limi Iqtisodiyot yo'nalishi 1-bosqich magistranti A'zam Muratov hamda Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi 2-bosqich talabasi Elbek Ermo'minov o'zlarining innovatsion loyihalari bilan tanlov g'oliblari safidan munosib o'rin oldilar.

Talabalar tomonidan ilgari surilgan innovatsion g'oyalar iqtisodiyot sohasidagi dolzarb muammolarga zamonaviy yechimlar taklif etishi, amaliy ahamiyati va istiqbolli natijalari bilan hakamlar e'tiborini tortdi. Ularning muvaffaqiyati universitetda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaratilgan qulay muhitning samarali natijasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Qarshi davlat universiteti yoshlarining ushbu yutug'i ilmga chanqoqlik, izlanish va intilish orqali yuksak marralarga erishish mumkinligini yana bir bor tasdiqladi. Bunday muvaffaqiyatlar oliygohning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, yoshlarni innovatsion tafakkur ruhida tarbiyalash hamda mamlakatimizning intellektual taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yangi avlodni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

QARDU TALABASI IKKI KARRA O'ZBEKISTON CHEMPIONI BO'LDI

Mamlakatimizda para sportni rivojlantirish, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash va ularning xalqaro maydonlardagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam zamin yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ana shunday imkoniyatlar samarasi o'laroq Qarshi davlat universiteti talabalari ham sportning turli yo'nalishlarida yuksak natijalarni qo'lga kiritib, oliygoh nufuzini munosib himoya qilmoqda.

Yaqinda Angren shahridagi "Yangiobod" Respublika o'quv-mashg'ulot bazasida para yengil atletika bo'yicha U17 va U20 yosh toifalaridagi O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi. Uch kun davom etgan nufuzli musobaqada yosh para atletlar yugurish, disk uloqtirish, uzunlikka sakrash kabi yo'nalishlarda medallar uchun bahs olib bordilar.

Mazkur chempionatda Qarshi davlat universiteti Sport fakulteti Jismoniy madaniyat yo'nalishi 1-bosqich talabasi Durdona Axatova yuksak mahorat va katta iroda namoyon etdi. U U20 yosh toifasining T13 klassi bo'yicha 100 metr va 400 metrga yugurish bahslarida barcha raqiblarini ortda qoldirib, ikki yo'nalishda ham oltin medalni qo'lga kiritdi hamda ikki karra O'zbekiston chempioni degan sharafli unvonga sazovor bo'ldi.

Durdona Axatovaning ushbu muvaffaqiyati ortida izchil mehnat va puxta tayyorgarlik mujassam. Sportchi universitetning Sport faoliyati kafedrasi o'qituvchisi Sevinchbek Husanov murabbiyligida muntazam shug'ullanib kelmoqda. Murabbiyning professional tajribasi va sportchining intilishi mazkur yutuqda muhim omil bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, Sevinchbek Husanovning o'zi ham yaqinda Marokashning Rabot shahrida para yengil atletika bo'yicha o'tkazilgan xalqaro Gran-pri musobaqasida bronza medalni qo'lga kiritib, mamlakatimiz sporti nufuzini xalqaro maydonda munosib himoya qilgan edi.

KORRUPSIYA TARAQQIYOTGA TO'SIQ

Bugungi globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan davrda har bir davlat o'zining barqaror taraqqiyoti va iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga intilmoqda. Bunda samarali davlat boshqaruvi, qonun ustuvorligi, shaffoflik va ijtimoiy adolat muhim omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu jarayonlarga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sifatida korrupsiya alohida e'tiborni talab etadi. Korrupsiya nafaqat iqtisodiy tizimga zarar yetkazadi, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini ham yemiradi, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini susaytiradi.

Korrupsiya - bu mansab yoki xizmat vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo'lida noqonuniy foydalanish holati bo'lib, u turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Jumladan, poraxo'rlik, tanish-bilishchilik, mansab vakolatini suiste'mol qilish kabi holatlar korrupsiyaning keng tarqalgan shakllari hisoblanadi. Korrupsiya zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga jiddiy xavf soluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisalardan biridir. U iqtisodiy tizimning barcha bo'g'inlariga kirib borib, davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiradi va resurslardan oqilona foydalanishga to'sqinlik qiladi. Eng avvalo, korrupsiya davlat byudjeti mablag'larining noto'g'ri taqsimlanishiga olib keladi. Mablag'lar haqiqiy ehtiyojlarga emas, balki shaxsiy manfaatlarga xizmat qilishi natijasida infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi muhim sohalar yetarli darajada rivojlanmay qoladi. Bu esa uzoq muddatda mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishiga olib keladi.

Korrupsiyaning iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'siri, ayniqsa, investitsiya muhitida yaqqol namoyon bo'ladi. Xorijiy va mahalliy investorlar o'z mablag'larini kiritishda shaffof va barqaror muhitni afzal ko'radilar. Agar davlatda korrupsiya darajasi yuqori bo'lsa, investorlar uchun qo'shimcha xavf va xarajatlar paydo bo'ladi. Masalan, ruxsatnomalar olish, litsenziyalar rasmiylashtirish yoki tenderlarda ishtirok etishda noqonuniy to'lovlar talab qilinishi investitsiya jozibadorligini keskin kamaytiradi. Natijada esa iqtisodiyotga yangi kapital oqimi sekinlashadi, yangi ish o'rinlari yaratilmaydi va innovatsion loyihalar amalga oshirilmay qoladi.

Shuningdek, korrupsiya raqobat muhitini izdan chiqaradi. Halol raqobat mavjud bo'lmagan sharoitda bozorda sifat emas, balki "aloqalar" ustuvor bo'lib qoladi. Bu esa samaradorligi past, lekin korrupsion aloqalarga ega bo'lgan korxonalarning ustunlikka ega bo'lishiga olib keladi. Natijada mahsulot va xizmatlar sifati pasayadi, narxlar asossiz ravishda oshadi va iste'molchilar zarar ko'radi. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznes vakillari uchun bozorga kirish qiyinlashadi. Bu esa iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Korrupsiya ijtimoiy sohada ham chuqur salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ta'lim tizimida korrupsion holatlar bilim va malaka darajasining pasayishiga olib keladi. Agar o'quvchilar yoki talabalar bilim orqali emas, balki noqonuniy yo'llar bilan baho yoki diplom oladigan bo'lsa, kelajakda bilimsiz kadrlar bazasi shakllanadi. Bu esa mehnat bozorida sifatli mutaxassislar yetishmovchiligiga sabab bo'ladi. Sog'liqni saqlash tizimida esa korrupsiya aholining sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini cheklaydi, bu esa inson salomatligiga bevosita xavf tug'diradi. Bundan tashqari, korrupsiya jamiyatda ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytiradi. Fuqarolar o'z huquqlarini amalga oshirishda teng imkoniyatlarga ega bo'lmay qoladilar. Moliyaviy imkoniyatlari yoki "tanish-bilishlari" mavjud bo'lgan shaxslar ustunlikka ega bo'ladi. Natijada jamiyatda tabaqalanish kuchaytadi. Aholining davlat organlariga bo'lgan ishonchi pasayadi, bu esa ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Korrupsiyaning siyosiy tizimga ta'siri ham juda katta. U davlat boshqaruvi institutlarining zaiflashishiga olib keladi. Qonunlar qabul qilinishida yoki ijro etilishida shaxsiy manfaatlar ustuvor bo'lib qolsa, bu demokratik tamoyillarning buzilishiga olib keladi. Natijada esa davlatning rivojlanish strategiyalari samarali amalga oshmaydi, islohotlar kutilgan natijani bermaydi.

Korrupsiyaning kelib chiqish sabablari turli omillar bilan bog'liq. Ular orasida huquqiy bazaning yetarli darajada mukammal emasligi, nazorat tizimining sustligi, mansabdor shaxslarning mas'uliyatsizligi, shuningdek, aholining huquqiy madaniyati pastligi muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, iqtisodiy tengsizlik, ishsizlik va kam daromadlilik ham korrupsiyaning keng tarqalishiga zamin yaratadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish kompleks yondashuvni talab etadi. Eng avvalo, davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash muhimdir. Ochiq ma'lumotlar tizimini rivojlantirish, davlat xaridlarini ochiq va adolatli o'tkazish korrupsiya imkoniyatlarini kamaytiradi. Shuningdek, sud-huquq tizimini mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta'minlash va jazolarning muqarrarligini kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ommaviy axborot vositalarining erkinligini ta'minlash ham korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali vosita hisoblanadi. Aholining huquqiy ongini oshirish, yoshlar o'rtasida halollik va vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish orqali ham ushbu illatning oldini olish mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish esa inson omilini kamaytirib, korrupsion holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Umuman olganda, korrupsiya jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uni kamaytirish esa uzoq muddatli va tizimli choralarni talab qiladi. Faqatgina davlat organlari emas, balki butun jamiyat birgalikda harakat qilgan taqdirdagina korrupsiyani sezilarli darajada kamaytirish va barqaror rivojlanishga erishish mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya jamiyat taraqqiyoti va iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy to'sqinlik qiluvchi katta muammolardan biri hisoblanadi. U davlat resurslarining samarasiz sarflanishiga, investitsiya muhitining yomonlashuviga, raqobat muhitining buzilishiga hamda ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga olib keladi. Natijada esa mamlakatning barqaror rivojlanishi sekinlashadi va aholi farovonligi pasayadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, korrupsiya nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy tizimlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi muhim sohalarda uning mavjudligi kelajak avlodning sifatli rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazadi. Shu bois ushbu muammoga qarshi kurashish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi lozim. Korrupsiyani kamaytirish uchun, eng avvalo, davlat boshqaruvida shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, aholining huquqiy ong va madaniyatini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali inson omilini qisqartirish va korrupsion holatlarning oldini olish mumkin. Shunday qilib, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish orqali adolatli jamiyatni barpo etish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish mumkin. Bu esa o'z navbatida kelajak avlod uchun farovon va barqaror hayot poydevorini yaratadi.

Nodira SRAJIDINOVA,
Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi.

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH MARKAZI

Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q

Har yili 18-may - Xalqaro muzeylar kuni dunyo miqyosida tarixiy-madaniy merosni asrash, o'tmish xotirasini e'zozlash va muzeylarning jamiyat hayotidagi ma'rifiy ahamiyatini yuksaltirish maqsadida keng nishonlanadi. Muzeylar xalqning tarixiy xotirasi, uning bosib o'tgan yo'li, boshidan kechirgan sinovlari va erishgan yutuqlarini o'zida mujassam etgan muqaddas maskanlardir. Ayniqsa, xalq tarixining ziddiyatlarga boy murakkab davrini aks ettiruvchi muzeylar bugungi va kelajak avlod uchun saboq maktabi vazifasini o'taydi. Ana shunday muhim ma'naviy maskanlardan biri Qarshi shahrida joylashgan Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyidir.

Bugungi kunda O'zbekistonda qatag'on qurbonlarining xotirasini abadiylashtirish, ularning boy ma'naviy, ilmiy merosini o'rganish va milliy ozodlik yo'lida olib borgan fidokorona faoliyatlarini tadqiq etish millatimiz oldida turgan muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi farmoyishi bu boradagi ishlarni yangi nechog'lik ayanchli kechganidan bosqichga olib chiqdi. Mazkur hujjat asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda qatag'on qurbonlari xotirasiga bag'ishlangan muzeylar tashkil etildi va takomillashtirildi.

Qashqadaryo viloyatidagi mazkur muzeyning joylashgan maskani ham alohida ramziy ma'noga ega. Muzey Qarshi shahrining Eski shahar qismidagi tarixiy Odina masjidi binosida faoliyat yuritmoqda. 1386-yilda Sohibqiron Amir Temur tomonidan bunyod etilgan bu masjid asrlar davomida xalqning ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan. Biroq tarixning achchiq burilishlari natijasida bu muqaddas maskan ham mustamlakachilik va mustabid tuzumning zulmidan chetda qolmadi. 1868-yilda Chor Rossiyasi bosqini davrida masjidning ayvon qismi to'pga tutilib vayron qilindi. Sovet davrida esa avval omborxona, keyinchalik, 1938-yildan boshlab qamoqxona sifatida foydalanildi.

Muqaddas qadamjoning qamoqxonaga aylantirilgani xalqimiz boshidan kechirgan fojiali tarixining dalolatdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev muzeyga tashrifi chog'ida bu holatni "tarixiy adolatning tiklanishi" deb ta'riflagani bejiz emas.

Muzey dastlab 2018-yil 28-avgust kuni Qarshi davlat universiteti tuzilmasida tashkil etilgan bo'lsa, 2021-yilda Odina masjidiga ko'chirilib, mazmunan boyitildi va kengaytirildi. Hozirgi kunda muzey 11 ta bo'lim va 4 ta ekspozitsiya zalidan iborat bo'lib, unda mustamlakachilik, siyosiy ta'qib va milliy ozodlik kurashlariga oid ko'plab noyob hujjatlar, tarixiy fotosuratlar, xaritalar va ashyolar jamlangan.

Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi bugun nafaqat tarixiy hujjatlar saqlanadigan maskan, balki yoshlar ma'naviyatini shakllantirish, milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotirani mustahkamlashda muhim tarbiya maktabi sifatida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Muzeyga tashrif buyurgan yoshlar o'z ajdodlarining boshidan kechirgan sinovlarini chuqur his etib, mustaqillikning qadrini anglaydi. Vatan va millat oldidagi mas'uliyatini teranroq tushunadi.

Tarixiy xotira - milliy o'zlikning ajralmas qismidir. O'z o'tmishini bilgan, undan saboq chiqargan avlodgina mustahkam kelajak qura oladi. Shu ma'noda, muzey yoshlarni vatanparvarlik, adolatparvarlik va inson qadrini ulug'lash ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Shu sababdan biz talaba yoshlar viloyatimizdagi muzeylarga doimiy ravishda tashrif buyuramiz. Jumladan, 18-may - Xalqaro muzeylar kuni munosabati bilan Filologiya fakulteti 025-30 va 025-31-guruh talablari murabbiyimiz Erkin Mustafoyev boshchiligida muzeyga tashrif buyurib, bu yerda saqlanayotgan eksponatlarni bir-bir ko'zdan kechirib bugungi erkin va ozod hayot osonlikcha qo'lga kiritilmaganligiga yana bir bor amin bo'ldik. Muzey xodimlari bizga muzeyning har bir bo'limi, ulardagi ekponat va tarixiy hujjatlar to'g'risida batafsil so'zlab berdilar.

Zafar XURRAMOV,
Talaba.

"MANTIQ UT-TAYR"DAN IBRATLI HIKOYATLAR

MAHMUD VA BALIQ OVLOVCHI BOLA

Shoh Mahmud bir kun lashkardan ajralib, ot ustida yolg'iz daryo bo'yini kezib yurardi. Uzoqdan daryo qirg'og'ida bir yosh bola suvga qarmoq tashlab o'tirganini ko'rdi. Bola nihoyatda g'amgin va tashvishli ko'rinardi. Podshoh bolaga salom berib, yoniga kelib o'tirdi. Podshoh bolaga qarab dedi:

- Ey o'g'il, nega g'amgin va parishonsan, sen kabi munchalik motamzada kishini ko'rgan emasman?

Bola dedi:

- Ey dilovar amir, biz oilada yetti go'dakmiz, otamiz qazo etgan, onamiz esa to'shakdan turolmaydigan bemordir. Qashshoqlikdan azobdamiz, ilojsizmiz. Biror rizqu ro'z topamanmi, deb sahardan shomgacha daryo yoqasiga kelib, qarmoq tashlab o'tiraman. Birorta baliq ilinsa shod bo'laman, chunki bizning bundan boshqa yeydigan narsamiz yo'q.

Podshoh dedi:

- Ey g'ayratli bola, agar xohlasang, senga sherik bo'lib ko'maklashaman.

Bola rozi bo'ldi va shoh qarmoq olib suvga tashladi. Shunday qilib, go'dakning

qarmog'i shohlik davlatiga erishdi (shoh qo'liga o'tdi) va ajoyibi shuki, o'sha kuni yuzta

baliq ovlandi. Bola bu qadar ko'p baliqni ko'rib, shuncha davlatim bormi, deb xursand bo'ldi.

- Ey g'ulom, ajab tole'ing borkim, shuncha baliq tuzog'ingga (qarmog'ingga) ilindi, -derdi ichida.

Shoh dedi:

- Ey, o'g'il, kam bo'lma. Agar baliq ovlovchingning kimligidan xabar topsang, buning sirrini anglarding. Sening davlating mendandir, zero, sening baliqchi sheriging podshoh bo'ldi.

Shoh bu gapni aytib, jo'nash uchun otiga mindi. Go'dak shohga qarab:

- O'zingga tegishli qismini ajratib olmaysanmi? - dedi.

Shoh dedi:

- Bugungi ovning barchasi seniki, ertangi ov esa - meniki bo'ladi. Agar sen xoxlasang, bizning ovimiz ertaga bo'ladi, shuni ham bilki, men ovimni boshqaga beradiganlardan emasman. Ertasiga shoh saroy ayvoniga chiqqanda, esiga o'sha sherigi keldi. Bir sipoh borib daryo labidan bolani olib keldi, shoh sheriklik qoidasiga amal qilib uni o'z o'rniga taxtga o'tqazdi.

Bir kaltafahm aytdiki:

- Ey shoh, bu bir gadovachcha-ku, taxtga o'tirishga munosibmi?

Podshoh dedi:

- U kim bo'lsa ham, bizning sherikdir, va'dalashganmiz va rad etmay bunga vafo qilamiz. Shunday deb, bolani o'zi kabi sulton qildi. Bir talabgor go'dakdan so'radi:

- Bunday izzat-ehtiromni qanday qilib qo'lga kiritding?

Go'dak dedi:

- Shodlik kelib, g'am chekindi, chunki bir sohibdavlat mardning menga nazari tushdi

- uning e'tiboriga musharraf bo'ldim.

BIR QULNING PODSHOH QO'LIDAN MEVA YEGANI

Bir yaxshi xulqli podshoh bor edi. Bir kun u o'zining quliga bir dona meva berdi. Qul mevani podshoh qo'lidan olib, nihoyatda xursandlik bilan yeya boshladi, qul shunday mazza qilib mevani yer ediki, go'yo dunyodagi eng xushta'm, shirin taomni yeyayotganday edi. Podsho buni ko'rib, havasi keldi va mevadan o'zi ham yegisi kelib, g'ulomga dedi:

- Ey g'ulom, bu mevani buncha ishtaha bilan yemoqdasan, menga ham ozgina ber.

G'ulom mevaning qolganini shohga uzatdi. Shoh uni tatib ko'rgan edi, afti burushdi.

Chunki meva bag'oyat achchiq edi. Shoh g'ulomiga dedi:

- Sening ishingni hech kim qilgan emas, shunday achchiq narsani bunday rohatlanib yemoqdasan, bunday yo'l tutishingning boisi nima?

G'ulom dedi:

- Ey shahriyor, men sendan yuzlab tuhfalar olganman, qanchadan-qancha yaxshilik

qilgansan. Shunday ekan, bir marta tuhfang achchiq chiqqan bo'lsa, qanday qilib buni

yuzingga solay. Men sening ne'matlaring ichida yashadim. Shu bois sening qo'lingdan

olgan narsam achchiq bo'lsa ham, menga shirindir. Sening qo'lingdan agar bir achchiq

meva menga yetgan ekan, uni qaytarib berish men uchun og'ir gunohdir.

Allohning yo'lida ranju azob chekishning o'zi rohat, buni qulog'ingga quyib ol, chunki so'z - nasihat ham ganjdir. Uning ishi goh orqada, goh ro'paradadir, sen uni qanday bajarsang, shunday holda voqe' bo'ladi.

San'at olami

MILLIY QADRIYATLAR BARDAVOMLIGI

"Buvi va nabira" - O‘zbekiston xalq rassomi Abdulhaq Abdullayev (1918-2001) tomonidan 1960-yilda yaratilgan mashhur portret janridagi asarlaridan biridir. Ushbu kartina o’zbek milliy tasviriy san’atining insonparvarlik ruhidagi eng samimiy va ta’sirchan namunalaridan sanaladi. Hozirgi kunda asar O‘zbekiston Davlat san’at muzeyi fondida saqlanmoqda.

Kartinada an’anaviy o’zbek hovlisidagi supada yonma-yon o‘tirgan mehribon buvi va uning nabirasi tasvirlangan. Asar orqali rassom milliy qadriyatlar davomiyligi, oilaviy an'analar, mehr-oqibat va milliy turmush tarzini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalagan.

Buvi obrazida hayot tajribasi, sokinlik va donishmandlik mujassam. Uning yuzidagi ajinlar oddiy fiziologik belgilar emas, balki umr yo‘llari, sabr va mehr timsoli sifatida gavdalanadi. Nabira esa beg‘uborlik, kelajak va davomiylik ramzi sifatida tasvirlangan. Rassom ikki avlod o‘rtasidagi ruhiy yaqinlikni mayin ranglar va tabiiy holatlar orqali ochib bergan.

Talabalar ijodidan

TASALLI

Menga ishqdan so'ylamang, sevdim degan so'z yolg'on.
Ko'zim sendan o'zgani, ko'rmas degan ko'z yolg'on.
Yashayapman suratday tomirda oqsa-da qon.
Sevib sevilmadingmi, mening bechora ko'nglim?!

Bilmayin ishq dardiga bo'libman mubtalolar,
Bu boshginam ko'rmagan bormi yana balolar.
Qolib ketdi sozlarda kuylanmayin navolar,
Sevib sevilmadingmi, mening bechora ko'nglim?!

O'z qadrini bilmagan ne bilsin ishq qadrini,
Borib Majnundan so'rang go'zal Layli dardini.
Shirin ishqida Farhod pora qilgan bag'rini,
Sevib sevilmadingmi, mening bechora ko'nglim?!

Mehr berding-u ammo ko'rganing bo'ldi jabr,
Gunohimmi suyganim el ichra bo'lib faqir.
Senga emas o'zimga o'zim qilaman qahr,
Sevib sevilmadingmi, mening bechora ko'nglim?!

Unutmoqqa bormikan bir imkon, biror chora,
Bormikan, bu olamda meningdek bag'ri pora.
Oh uraman - ohlarim yetsaydi senga zora,
Sevib sevilmadingmi, mening bechora ko'nglim?!

Maftuna IBRAHIMOVA,
talaba.

BU FASL...

Bu fasl bahorning gulidek nafis,
Bu fasl samoviy orzuga to’lgan,
Qaysi tamonlarga olib ketdi yil
Bizlarni ming bitta bo‘lakka bo‘lgan.

Bu fasl koptokning ortidan yelib
Yugurak yillarning poyida cho‘kkan.
Qolgan umrimizning mazmuni boshqa,
Yarim mazmunini shu yerga tikkan.

Bu fasl novdada titragan yaproq,
Yaproqday to’kilgan ko‘ngilmi - ko‘zyosh?
Oqibat libosin yechmasdan turib
Bitiruv oqshomin esla sinfdosh.

Ustozning kelishin kutmay so‘ngi dam,
Oxirgi darslarda qochganimiz bor,
Qochib bo‘lmaydi-ku taqdir, hukmidan
Qancha kunlar o‘tar, takror va takror.

Bu fasl onamning poyidan jilmay
Egat, dalalardan qaytganmiz oqshom.
O‘sha kunlarimning yodimi, bilmam,
Sog‘inch ufuradi yurakka tinmay.

Bu fasl aytilmay qolib ketgan so‘z,
Bu fasl qilinmay qolgan dil izhor.
Hech qachon barisi bo'lmas faromush
Unutib bo‘lmaydi seni ham dildor.

Bu fasl bahorning gulidek nafis....

Navro‘z SUVONOV,
talaba.

MUASSIS: Qarshi davlat universiteti

ISSN 2181-7561

Viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 2007-yil 2-aprelda 14-035 raqami bilan ro'yxatga olingan

Jamoatchilik kengashi: D.X.NABIYEV, O.KUZIYEV, A.XOLMURODOV, X.DJURAYEV, I.BEKPO'LATOV, A.NOROV, D.TO'RAYEV, A.ERKAYEV, A.SHODIYEV.

Tahrir hay'ati: L.YOZIYEV, N.SHODMONOV, S.CHORIYEV, X.JABBOROV, G.IMOMOVA, SH.NURIDDINOV, N. YO'LDOSHEVA, O.BO'RIYEVA, D.SHODMONOVA, SH.KAROMOVA,

Muharrir: G'iyosiddin ShODMONOV.

Gazeta oyda bir marta chiqadi. Adadi: 1000 nusxa. Chop etishga ruxsat berilib, imzo qo'yilgan vaqti. 2026-yil 30-may soat 15.00. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta ‘‘Photo Express’’ ishlab chiqarish korxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 22-uy.

Navbatchi: J.Ismatilloyev.
Matn teruvchi va sahifalovchi: Z. Po‘latova.

Tahririyat manzili:
Qarshi shahri,
Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy.
Tel: (+99897) 382-21-31
Murojaat uchun bot: @qarshidupressbot
Email: qarun.gazeta@umail.uz
Buyurtma №